

MAMATQUL HAZRATQULOV QISSALARINING STRUKTUR, SEMIOTIK XUSUSIYATI

Alimqulova Ma'rifat Baxtiyorovna

ToshDO'TAU I bosqich tayanch doktoranti

E-mail: mb19941408@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17173460>

Annotatsiya: Mazkur tezis Mamatqul Hazratqulov ijodidagi qissalarning struktur va semiotik xususiyatlarini tahlil etishga bag'ishlangan. Ijodkorning qissalaridagi sarlavha, ilk jumla va epigraf kabi muhim badiiy elementlar tadqiq qilingan. Shuningdek, "Ko'kko'l", "Intizor", "Eshiklar ochiq", "Chiroq o'chmagan kecha" hamda "Bir tilim qovun" kabi qissalardagi ramziy ma'nolar, ruhiy-emotsional kayfiyat va g'oyaviy qatlamlar yoritilgan. Muallif sarlavha va ilk jumlaning kitobxon tasavvurida hosil qiladigan dastlabki taassurotni, shuningdek, epigrafning badiiy mazmunni chuqurlashtirishdagi ahamiyatini ko'rsatib bergani haqida ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: qissa, struktura, semiotika, sarlavha, ilk jumla, epigraf, ramziy obraz.

Annotation: This thesis is devoted to the analysis of the structural and semiotic features of Mamatkul Hazratkulov's novellas. The study examines the writer's works through key artistic elements such as the title, the opening sentence, and the epigraph. In particular, the novellas *Ko'kko'l*, *Intizor*, *Eshiklar ochiq*, *Chiroq o'chmagan kecha*, and *Bir tilim qovun* are explored for their symbolic meanings, emotional atmosphere, and thematic layers. The research highlights how titles and opening sentences create the reader's first impression, while epigraphs deepen the artistic content. It is also emphasized that the harmony of space, time, objects, and symbolic images forms the main aesthetic basis of the novellas.

Keywords: novella, structure, semiotics, title, opening sentence, epigraph, symbolic image.

Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan davrda ilm-fan, xususan adabiyot ham yangidan-yangi ufqlarni zabt etmoqda. Zamon bilan hamnafas, davr muammolariga hamohang hamda uning o'ziga xos xususiyatlarini mujassam etgan asarlar yaratilmoqda. Bunday asarlar nafaqat o'quvchini hayotiy masalalar haqida o'ylashga undaydi, balki uni tarbiyaviy jihatdan kamol topishga, estetik tafakkurini shakllantirishga chorlaydi.

Shu ma'noda, iste'dodli adib Mamatqul Hazratqulov ijodi alohida e'tiborga loyiqdir. Asl kasbi jurnalist bo'lsa-da, uning ijodiy yo'li publitsistik ruhdagi asarlardan boshlangan. Keyinchalik u epik turga murojaat qilib, qissa janrida samarali qalam tebrata boshladi. Ijodkorning qissalarida zamon va davr ruhiyati, insoniy tuyg'ular, ijodkorning o'z kechinmalari badiiy ifodasini topgan bo'lib, ular o'quvchiga estetik zavq va teran idrok baxsh etadi.

Adib qissalari strukturasi va semiotikasini tahlil etar ekanmiz, avvalo, adabiyotshunoslikda struktura va semiotika terminlariga alohida e'tibor qaratishimiz kerak.

"Struktura badiiy matndagi qismlararo aloqa, moslashuvni namoyon etadi. U matndagi barcha elementlarni o'rganib, ma'no yo'nalishi, ko'p qatlamligini ta'minlashga, botiniy quvvatni mustahkamlashga imkon yaratadi. Struktura badiiy matnning estetik manbai sanalib, semiologik markazning aniq, tiniqligi uning teranligiga ishoradir". [Rasulova U. 2020, 168-b]

Sarlavha – asarning eng dastlabki semiotik markazlaridan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Unda ijodkorning bosh g'oyasi va konsepsiyasi mujassam bo'ladi. Kitobxon uchun esa sarlavha

birinchi taassurot manbai bo'lib, shu nuqtadan boshlab u muallifning ijodiy niyatini anglashga kirishadi.

Mamatqul Hazratqulov qissalariga nazar tashlaganda, ayrim asarlar sarlavhasida muayyan makon yoki maskan nomi ko'zga tashlanadi. Xususan, "Ko'kko'l" qissasida bunday holat yaqqol seziladi. Ushbu sarlavha kitobxonga nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki asarda tasvirlanadigan asosiy voqealar o'sha maskan bilan bevosita bog'liq ekanini ham anglatadi. Ko'lning betakror manzaralari, sohilning sokin va fayzli tarovati qahramonning orzu va armonlari bilan uyg'unlashib, asta-sekin badiiy ifodasini topishi kuzatiladi.

"Intizor", "Eshiklar ochiq" kabi sarlavhalar badiiy tafakkurda intiqlik, ruhiy-emotsional kayfiyat, sog'inch va kutish drammatizmi va imkoniyat hamda ijtimoiy-ruhiy erkinlik manzarasini jonlantiradi. Ikkala sarlavha ham kutish, ochiqlik, umid va inson qalbining ichki dunyosini ifodalaydi.

"Chiroq o'chmagan kecha" sarlavhasi oddiygina vaqt ko'rsatkichi emas, balki yozuvchining visol haqidagi orzu-umidlarini, insoniy tuyg'ularning bedorligini ifoda etadi. Bu yerda "kecha" – vaqt mezoni sifatida emas, balki ruhiy holatning belgisi sifatida namoyon bo'ladi. Chiroqning o'chmasligi esa ko'ngilning qorong'ulikdan saqlanishi, muhabbat va samimiyat bilan yoritilgan olamni anglatadi. Demak, sarlavha zamonda kechayotgan voqelikni emas, balki inson qalbida kechayotgan hissiyotni yorqin ifodalaydi.

"Bir tilim qovun" qissasi sarlavhasida esa qovun oddiy meva emas, balki ramzga aylangan predmetdir. Qovun - mehmondo'stlik, bir bo'lak non-u ne'matdek insoniy yaqinlikni anglatadi. Bir tilim qovun orqali muallif insonlar o'rtasidagi mehr, iliqlik va o'zaro ehtiromni badiiy shaklda ifodalaydi. Predmetning ramziy talqini asarga qo'shimcha ma'no qatlamini olib kiradi, uni hayotiy va hissiy jihatdan boyitadi.

Umuman, har ikki sarlavhada ijodkor oddiy so'z va predmetlar vositasida chuqur ma'no uyg'otadi. Bunda vaqt va predmetning tashqi shakli emas, balki ular orqali berilayotgan ichki ruhiy ma'no asosiy badiiy qiymatni belgilaydi. Shu tariqa sarlavhalar kitobxonni nafaqat asarning mazmuniga tayyorlaydi, balki uni hayotiy qadriyatlarni anglashga chorlaydi. "Sarlavha muallif tomonidan shunchaki tanlanmaydi, uni vaziyat, maqsad, sharoit, emotsiya (hissiyot) yo mushohadaga yo'nalgan fikrlash doirasi taqozo etadi". [Феллер М. 1981, 90 б]

Ijodkorning mazkur qissalari tahlilida ilk jumlaning o'rni va ahamiyatiga nazar tashlaylik. Ilk jumla – asarning mazmuniga eshik ochuvchi kalit hisoblanadi, u nafaqat voqealar rivojiga zamin yaratadi, balki kitobxon qalbida ilk taassurotni uyg'otadi.

"Badiiy asarda ilk jumla yagona so'z yoki bir nechta gap bilan ifodalanishi mumkin. Bu yozuvchining badiiy uslubi bilan bog'liq bo'lib, aksariyat asarlarda birinchi jumlaning muhtasari tasvirlashga urinish seziladi." [Хамроев К. 2019, 133 б]

"Chiroq o'chmagan kecha" qissasi "Avgust oqshomi: iliq yoqimli..." satri bilan boshlanadi. Bu oqshom tasviri kitobxonga yoz faslining sokin, ammo o'ziga xos hayotiy manzaralarini eslatadi. Avgust - hosil yig'im-terimi, tabiatning yetilgan chog'i bo'lib, asar qahramonining hayoti ham pishiqchilik davriga bevosita bog'lanadi. Yozuvchi aynan shu davrni tanlab, voqealar rivojiga tabiiy bir ohang beradi.

"Bir tilim qovun" asari esa: "Sentyabrning oxirlari..." jumalari bilan boshlanadi. Bu davr tabiatning asta-sekin sarg'ayishi, havoning salqinlashuvi, hayot sur'atlarining o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Kengroq ma'noda qaralganda, umrga mengzanadi. Kuz fasli - inson umrining ma'lum bir bosqichi-yoshlikning ortda qolib, hayotning sokin, lekin mazmunli davriga qadam

qo'yishini eslatadi. Shu bois ham ushbu boshlanish asarga o'ziga xos kayfiyat- biroz sog'inch, samimiy xotiralar va kuzga xos mulohazakor ohang bag'ishlaydi.

Har ikkala asarda ham vaqt belgisi aniq ko'rsatilishi bejiz emas. Muallif yoz va kuz fasllarini tanlash orqali qahramonlar ruhiy holatini, hayotiy kechinmalarini yanada yorqinroq ochishga erishadi. Yoz – hayotning to'liq kuchga to'lgan pallasi sifatida tasvirlansa, kuz – insonning o'ychanlik, xotiraga berilish, o'tganlarni eslash fasli sifatida gavdalanadi. Darhaqiqat, Alisher Navoiy inson umrini fasllarga qiyoslab, o'ziga xos badiiy nigoh orqali umr manzarasining hikmatini ochib beradi.

Mazkur qissalar tarkibida ham ramziy ma'no aks etgan bo'lib, zamirida qahramon taqdiriga urg'u berilgani ko'zga tashlanadi.

“Sochidan qaytganidan so'ng Botir xayolchan, kamgap bo'lib qoldi”, satrlari bilan boshlanadi adibning “Ko'kko'l” qissasi. Dastlabki jumlaning o'zidayoq qahramonning ruhiy holati, ichki dunyosidagi og'irlik seziladi. Safardan qaytib kelgan Botirning xayolchanligi kitobxonni darhol mushohadaga chorlaydi. Uning Ozarbayjondagi hayoti, u yerdagi taassurotlari va qalbida uyg'ongan o'y-xayollari bevosita qahramon ruhiyatiga singdirilib, asar muhitiga kirib borishda muhim rol o'ynaydi. Shu tariqa yozuvchi Botir siymosi orqali insonning kechinmalari, hayotiy tajriba va xotiralarining ta'sirchan manzarasini ochib beradi.

“Intizor” qissasi “Oyimga nima deyman?” degan qisqa jumla bilan boshlanadi. Bu so'zlarda oddiy savoldan ko'ra ko'proq xavotir va hadiksirash ohangi mujassam. Asar qahramoni Sanamning ichki iztirobi shu ilk jumladan seziladi. Chunki u onasining fe'l-atvorini: sal kechiksa ham jahli chiqib, koyib berishini yaxshi biladi. Shu bois bu savol Sanam uchun oddiygina bahona izlash emas, balki onasi oldidagi hurmat va mehr aralash kechinmalarining ham ifodasidir. Birgina so'roq ohangida berilgan jumla kitobxonni qahramon ruhiy holatiga yaqinlashtirib qo'yadi va asarning keyingi voqealariga psixologik zamin yaratadi.

Muallifning “Eshiklar ochiq” qissasi esa: “Sa'dulla atrofga alangladi”, satri bilan boshlanadi. Tasvirdagi “alanglamoq” fe'li qahramonning ichki beqarorligini, yuragini qamrab olgan xavotirni ochiq-oydin his qildiradi. Asarning dastlabki jumalaridanoq kitobxon Sa'dullaning iztirobli kechinmalariga sherik bo'ladi, uning nigohlaridagi bezovtalik butun muqaddima davomida izma-iz davom etadi. Qissa oxiriga kelib esa, ushbu ruhiy iztirobga ma'lum darajada yechim topilgani ayon bo'ladi hamda Sa'dullaning bunday ruhiy holatga tushish sabablari voqealar rivojida asta-sekin o'z yechimini topadi. Yozuvchi esa qahramonning tushkun kayfiyatini yanada teranroq ifodalash uchun zulmat va nur ramzlarini qarama-qarshi qo'yadi. Shu tariqa Sa'dullaning iztiroblari va ichki kurashlari orqali asarning bosh g'oyasi ham o'ziga xos falsafiy yondashuv bilan namoyon qilinadi.

Mamatqul Hazratqulovning “Chiroq o'chmagan kecha” qissasi epigraf bilan boshlanadi. Epigraf asarga dastlabki ruh bag'ishlab, kitobxonni yozuvchi yaratgan olamga chorlaydi. U voqealar mazmunini kengaytirib, qahramonlarning ichki kechinmalariga yo'l ochadi hamda qissa ohangini yanada kuchaytiradi. “Eng asosiysi, muayyan asarning mazmunini o'zida tashishi yoki shu mazmun qanday bo'lishiga urg'u berishi (ba'zida isbotlashi) talab qilinadi”. [H. Umurov H. 2004, 138-b]

Qissaga Umar Xayyomning mashhur ruboiylaridan biri:

*Yo'qlikdan pok kelib, nopok bo'ldik biz,
Sho'xu quvnoq kelib, g'amnok bo'ldik biz,
Ko'zimiz to'la yosh, yurakda olov,*

Umr yelga ketdi, ham xok bo'ldik biz.

epigraf qilib olingan bo'lib, asosiy ma'noni o'zida mujassam etganligi va qahramonning ruhiy holatini chuqur ifodalab berganligi bilan xarakterlanadi. Bundan tashqari "Qissada epigraf poetik mazmunni umumlashtirish, badiiy niyatni o'qishda muhim sanaladi. Muallif yoritayotgan masalaga doir zarur ko'chirma (she'r, hikmat, maqol, hadis kabi)ni kiritib, g'oyaviy, hissiy salmoqdorlikni oshiradi". [U. Rasulova. 2020, 24-b]

Mamatqul Hazratqulov qissalari o'ziga xos badiiy olami, ramziy qatlamlari va ruhiy-emotsional manzaralari bilan kitobxonni o'ylashga chorlaydi. Hazratqulov oddiy so'z va obrazlar orqali chuqur ma'no yaratadi, hayotning mohiyati va inson qalbining nozik jihatlarini yoritadi. Uning asarlarida sarlavha, ilk jumla va epigraf kabi unsurlar shunchaki tashqi bezak emas, balki asarning estetik va mazmuniy markaziga aylanadi. "Ko'kko'l"dagi makon timsoli, "Intizor" va "Eshiklar ochiq"dagi kutish va umid kayfiyati, "Chiroq o'chmagan kecha"dagi bedorlik ramzi yoki "Bir tilim qovun"dagi samimiylik ifodasi – barchasi yozuvchining hayotiy tajriba va ichki kechinmalaridan oziqlangan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Феллер М. Структура произведения. –М.: Книга, 1981 – С. 90.
2. Hazratqulov M. Gladilous – T.: Adabiyot, 2022.
3. Hazratqulov M. Qizil va yashil. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023.
4. Хамроев К. Ҳикояда илк жумла поэтикаси. //Шарқ юлдузи. 2019 №11 –Б.133.
5. Rasulova U. XX asr o'zbek qissachiligi (Poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari) fil. f d. diss. (Dsc) Toshkent– 2020.
6. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –T.: A. Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004.